

JALOLIDDIN MANGUBERDI - VATAN QAHRAMONI

Abdivaitov Anvar

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrası**Tarix (kechki) 1 –kurs 1-24-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu ishda XIII asr boshlarida yashab, Chingizxon istilosiga qarshi mardona kurash olib borgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va tarixiy faoliyati yoritiladi. Annotatsiyada uning shaxs sifatida shakllanishi, harbiy iste'dodi, davlatni tiklash yo'lidagi sa'y-harakatlari hamda vatan ozodligi uchun olib borgan mashaqqatli janglari qisqa va mazmunli tarzda bayon qilingan. Shuningdek, Jaloliddin Manguberdining Vatanni himoya qilishda ko'rsatgan jasorati, o'zgarmas iroda va matonati bugungi avlod uchun ibrat ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu material qahramonning tarixdagi o'rni, merosi va milliy g'ururni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, jasorat, mo'g'ullar istilosi, Xorazmshohlar davlati, mustaqillik kurashi, sarkarda, tarixiy meros.

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri – mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoli bo'lgan Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. O'rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va munshiysi bo'lgan an-Nasaviy uni Mankburni (ya'ni, mank - «belgi», «xol», «xoldor burunli» degan ma'noni anglatgan) nomi bilan atashgan. Istiqlol sharofati bilan ozodlik va erk kurashchisi bo'lgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining tarixiy nomi qayta tiklandi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimovning: «Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u G'ururidir», - degan ta'rifi qo'yilgan mavzu mohiyatini to'liq o'zida mujassam etadi. Istiqlol yillarida nomi unut bo'lgan ko'plab buyuk tarixiy siymolarning nomlari qayta tiklanib, tarixiy adolat qaror topdi. Bu esa o'rta asr tarixini yanada chuqur o'rganishga imkoniyat yaratdi. Mustaqillik yillarida chop etilgan darslik va adabiyotlarda mazkur davr voqeligi to'liq o'z aksini topa boshladi. Mustaqillik yillarida an-Nasaviyning mashhur asari hamda tarixchi olim Z.M. Bunyodovning kitoblari o'zbek tiliga o'girilib, keng kitobxonlar ommasiga havola etildi. Anushteginiylar sulolasi boshqargan Xorazmshohlar davlati (1097–1231)ning ko'p yillik tarixi o'sha davr musulmon tarixchilari tomonidan yozilgan qator asarlarda o'z aksini topgan. Ular asosida ushbu sulolaning so'nggi vakili, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hukmronligi, uning mo'g'ul iistilochilariga qarshi qahramonona kurashi hamda G'arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini kuzatish mumkin. Bu manbalar orasida Jaloliddin Manguberdining shaxsiy kotibi (kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn

Ahmad an-Nasaviy qalamiga mansub “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimayi holi”) nomli asar alohida o‘rin tutadi. Nasso (Niso) viloyatidagi qal’alardan birining sohibi bo‘lgan Nasaviy 1224-yilda xizmat yuzasidan Iroqqa borib qoladi va o‘sha yerda Jaloliddinning xizmatiga kiradi. Shu paytdan e’tiboran Nasaviy Jaloliddinning ishonchli mulozimlaridan biriga aylanib, to 1231-yilgacha, ya’ni Jaloliddinning vafotiga qadar u bilan birga bo‘ladi. Nasaviy o‘z qahramonini yaqindan bilgan, asarida bayon topgan voqea-hodisalarning aksariyatida bevosita ishtirok etgan yoki shohid kishilarning xabarlariga tayangan, eng muhimi, xolisona va haqqoniy fikr bildirgan, bular asarning ilmiy qimmatini hamda ishonchlilik darajasini oshiradi. Muallif o‘z asarini bitishga Jaloliddin vafotidan qariyb 10 yil o‘tgandan keyin 1241-yilda kirishgan. Jaloliddin Manguberdi haqida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy asarida shunday yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so‘zlasha olardi. U mard va jasur bo‘lib, sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni, adolatni ulug‘lardi”. Muhim manbalardan yana biri mashhur tarixnavis Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” (“Tarix haqida mukammal kitob”) asaridir. “Al-komil fit tarix” Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari tarixining islom tarqalishidan to 1231-yilgacha bo‘lgan davri haqida ma’lumot beruvchi eng qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Jaloliddinning faoliyatiga keng o‘rin ajratadi va ko‘pincha o‘zining muhim va aniq ma’lumotlari bilan boshqa manbalarni sezilarli darajada to‘ldiradi. Jaloliddin Manguberdi haqida muarrix va yirik davlat arbobi Alouddin Atomalik Juvayniy tomonidan yozilgan “Tarixi jahonkushoy” (“Jahon fotihi asari”) asari muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bundan tashqari, Mirxond “Ravzat us-safo”, Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asarlarida Jaloliddin Manguberdi haqida ma’lumotlar yozib qoldirilgan. U haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, xitoy, mo‘g‘ul, arman va boshqa tillardagi manbalarda ham uchraydi. Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasini yozgan. Adib asarida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Biroq sobiq sho‘rolar davrida Jaloliddin Manguberding sarkardalik faoliyati va uning Vatan ozodligi yo‘lida olib borgan kurashiga bir yoqlama yoki umuman fikr bildirilmasdi....Jaloliddin Manguberding hayot yo‘lini tahlil qiladigan, o‘sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko‘zi bilan qarab baho beradigan bo‘lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi. Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko‘rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo‘ravonlik bilan o‘z hukmronligini o‘rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo‘ladi. Bu – hayot. Bu – hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o‘z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko‘rish mumkin. Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o‘zing tug‘ilib

o'sgan, ota-bobolaring xoki yotgan, ertaga farzandlaring kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak. Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko'ra o'z ichidan chiqadigan sotqin, iymonsiz, o'zining manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, kerak bo'lsa, eng yaqin kishilarini ham sotadigan, o'stirgan, voyaga yetkazgan Vataniga qo'l ko'taradigan qabih kimsalardan nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kibr-u havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotiga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko'rib turibmiz. Takroran aytaman, bu nafaqat kechagi tariximiz, balki bugungi hayotimiz bilan hamohang achchiq saboqdir. Yana bir saboq shuki, el-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o'ziga oliy maqsad qilib qo'ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o'chmas nom qoldiradi. Bu – haqiqat. Jaloliddin Manguberdi ana shunday mardlarning yorqin timsoli va ibratli namoyandasidir. Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da'vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg'ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o'sib kelayotgan, ertaga bizning o'rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug' istiqbolga intilib yashashga chorlaydi....Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir. Islom Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqidan. 1999-yil 5-noyabr 1998-yili Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda esa mavzuning ko'plab o'rganilmagan qirralari ma'lum qilindi. Jaloliddin og'ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan. xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'liga tushgan, sulton mamlakatni O'z holiga tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib. uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o'g'il bo'lsada, buvisi Turkon xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon xotun urug'idan bo'lgan boshqa bir shahzoda - Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi. O'rta asr musulmon tarixchilari o'z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan edi. Jaloliddin Manguberдини shaxsan bilgan tarixchi an-Nasaviy unga shunday deya ta'rif bergan edi: «U turkiy bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor, o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... Qisqa so'zli, hech qachon so'kinmagan, yomon so'zlarni o'ziga ep ko'rmagan, juda jiddiy,

atrofdagilar oldida o'zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qocyar edi, xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U o'z fuqarolari dardini yengillashtirishga harakat qilgan. Shuni xohlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l bergan. O'zini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflami yoqtirmagan, faqat «sulton» deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: «Yordam yolg'iz Alloh dandir!» degan shior bo'lgan». Xorazmshohlar avlodidan bo'lgan Misr hokimi al-Muzatfar Sayfiddin Kutuz ajdodlarning shonli kurash yoclini davom ettirib, 1260- yil 4-aprelda Falastindagi Ayni Jalut yonida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek qo'yadi. Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilganligi, 1998-yil Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavallud to'yiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ta'kidlanganidek, sarkardaning «insoniyatga ozodlik yo'lida kurashning, yurti istibdod va zulmdan qutqarishning yorqin namunasi» sifatida bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirganligidan darak beradi. Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Al-Maqriziy Sulton Kutuzning haqiqiy ismi Mahmud ibn Mahmud, uning otasi Jaloliddinni amakisining o'g'li bo'lgan, deb yozgan edi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir qator oliy o'quv yurtlari, turli jamg'armalar mutaxassislari tomonidan ko'plab risolalar chop etildi, mohir rassom T.Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi. «Jaloliddin Manguberdi - Vatan, yurt himoyachisi» mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi, yurtimiz mehmonlari ishtirokida ulkan teatrlashtirilgan tomoshalar bo'lib o'tdi. 1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatilishi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, «G'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deya halok bo'lgan» milliy qahramonimizga xalqimizning buyuk ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi. 2000-yil 30-avgustda «Jaloliddin Manguberdi» ordenining ta'sis etilishi esa uning sarkardalik faoliyatining yana bir e'tirofi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi o'z davrining eng mard, qat'iyatli va irodali sarkardalaridan biri sifatida tarixda munosib o'rin egallagan. U mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashda hech qachon taslim bo'lmagan, hatto eng og'ir sharoitlarda ham vatan ozodligini himoya qilishni o'zining asosiy burchi deb bilgan. Uning jasorati, vatanparvarligi, qo'mondonlik mahorati bugungi avlod uchun ham ibrat maktabidir. Manguberding hayoti bizga mardlik, fidoyilik, erk va yurtga sadoqat kabi yuksak



fazilatlarni eslatadi. Shu bois u nafaqat o'z davrining, balki butun o'zbek xalqining milliy qahramoni sifatida qadrlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B. Jaloliddin Manguberdi. — Toshkent: “Fan”, 1999.
2. Vohidov R. Xorazmshohlar davlati va mo'g'ullar bosqini. — Toshkent, 2005.
3. Barthold V.V. Turkiston tarixi. — Toshkent: “Sharq”, 1997.

